

OILANMINIG IJTMOIY VAZIFALARI

Mirzarahimov Oybek

*Andijon davlat universiteti, Magistratura 2-bosqich talabasi
oybekmirzarahimov27@gmail.com*

Anotatsiya

Mazkur maqola insonlarni oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo'lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Kalit so`zлari: Istiqomat, nikoh, Antropolog, matrilok, nuklear, mafkuraviy munosabat, istisno, monogam oila, xushfe'lllik iltifotlilik, bolajonlik,

Oila nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo'lмаган. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to'da-to'da bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo'lmay, to'dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiyl er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-onal bilan farzandlar, so'ngra aka mavjud uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo'lган, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo'jalikka ega bo'lмаган. Bu davrda tabiiy omil o'z vazifasini tugalladi, ya'ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi (yana qarang:

Patriarxal oila, Poliandriya, Poligamiya, Poliginiya). Ijtimoiyishlab chiqarish chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan erkaklar mehnatining qadri oshdi, mahsulot ishlab chiqarishda ulushi ortdi, binobarin, ularning ijtimoiy mavqeい ham tubdan o'zgardi. Mavjud qoida tartiblar farzndlarning onagagina tegishli bo'lishi, ona mulkiga merosxo'r sanalishi erkaklarning yangi mavqeiga zid kelib qoldi.

Natijada ota huquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi. Shunday qilib, hozirgi individual oilaning o‘tmishdoshi monogam oila vujudga kelgan (qarang: Monogamiya). Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urfodatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab keljak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga jamiyatga qo‘sish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan, o‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarni odobli, ma’naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi (qarang Oila tarbiyasi).

Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanishi, u tarbiya o‘chog‘i sifatida shaxsni ng shakllanishida muttasil ishtirok etadi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funktsiyasini ta’milanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, sub’ektlarning kamolot darajasi belgilaydi. Agar rollar, status va o‘zaro hamjihatlik inqirozga yuz tutgan holatda oiladagi psixologik muhitni tasavvur qilishni o‘zi murakkabdir. Oilada shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta’minalashga xizmat qiladi. Albatta, bu holatni asoslovchi omillarni tadqiq qilishda quyidagicha yo‘l tutishni lozim topdik: Oilaning ijtimoiy nufuzi, obro’si otaning, arning, o’g’ilning iqtisodiy maqomidan kelib chiqadi, ayolniki esa farzandlar soni bilan belgilanib, uning professional maqomi ko‘p hollarda oilaning, turmush o’rtog‘ining ijtimoiy maqomiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, farxzandlar ko‘z o‘ngida otaning avtoriterti pastlaganday bo’ladi, ayrim holatlarda arning oila ta’mintaqidagi ulushi tushib ketishi ham ayolning oila moddiy ta’motiga bevosita aralashishiga sabab bo’ladi. Monogam oila bola manfaatiga yo‘nalgan oila (detotsentrik) XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo’lgan hodisadir. U xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi rolining ortishi hamda bola huquqlarining oshib borishi bilan izohlanadi. Bunday holatlarda gap ko‘proq oilada farzandlar soni haqida emas, balki oilada umuman bola borligining qadrlanishi to’g’risida boradi. Ota-onalar bunday sharoitda ko‘proq bolaning keljakda kim bo’lishi, u egallashi lozim bo’lgan martabalar, uning istiqboli xususida qayg‘uradigan, shu bois ham oila budgetining asosiy qismi uni ta’minalash, unga zarur ta’lim va tarbiyani berish, g’amxo’rlik qilishga sarflanadi. Bolalar bilan bog’liq ehtiyojlarning o’sib borishi oqibatida mamlakatda ham bolalar ta’motni, ularning ozuqasi, kiyim-kechagi, o‘yinchoqlar, bolalarning

madaniy-ma'rifiy maskanlarini rivojlantirishga ixtisoslashgan sanoat korxonalari ko'payadi, rivojlanadi. Bolalar va yoshlarning turli ma'rifiy o'choqlarining kengayishi, yangi texnika va texnologiyalarning asosan bolalar manfaatiga bevosita bog'lanishi, yoshlarning kasb ta'lmini takomillashtirish ishlari, ular o'qishi va bilim olishi muddatlarining uzaytirilishi ularning mehnat sohasiga kechroq kirib borishiga olib keladi. YA'ni, ilgarigiga nisbatan bolalar kechroq mustaqil hayotga kirishadi. Buning oqibatida nikoh yoshi ham tobora kattalashib boradi. Kattalar tomonidan bolaga e'tiborning, shu bilan bir qatorda tashvishlarning ortishi, o'z navbatida bolalarning tug'ilish soni kamayishiga olib keladi. Bolalar erka bo'lib, ular erkinligi ortib boradi, ota-onaning butun diqqat-e'tibori ularga qaratiladi. Bu toifa oiladagi bola manfaati shu qadarki, ba'zan ona faqat bolani o'ylash, unga e'tibor qilishni afzal bilganidan, eridan ham voz kechishi holatlari ham kuzatiladi. Bola manfaatiga yo'nalgan oilaning ham turli ko'rinishlari bo'lib, ulardan biri avtoritar tipdir. Bunda bola soni bittami yoki ikkitami ota-onaning cheksiz g'amxo'rliqi, ular obro'si bilan parallel tashkil etiladi. Masalan, ko'pgina amaldorlarning oilasi shunday. Ota-onsa bola nazarida eng nufuzli, aqli har narsaga etadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasiday bo'lib etishish motivatsiyasi kuchli bo'ladi. Ambivalent detotsentrik oiladagi bola ko'proq ota-onaning hissiy-emotsional g'amxo'rliqi ta'sirida bo'ladi. Masalan, bu agar qiz bo'lsa, u faqat otasi yoki onasi, yoki ikkisining doimiy erkalashlari og'ushida katta bo'lib, oxir-oqibat shunday holatga ko'nikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday bo'lsa kerak, degan fikr ba'zan o'zi mustaqil oila qurganda, uning yangi xonadonga ko'nikishiga jiddiy xalaqit beradi. Kvaziatnom detotsentrik oilada bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, o'z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan bo'ladi. Buning albatta, ham ijobjiy, ham salbiy jihatlari bor. Er-xotin oilasi XX asrning 60-chi yillarida paydo bo'lib, u ham ayollar, ham bolalar emansipatsiya jarayonlarining oqibati sifatida qaraladi. Bunday oiladagi o'zaro muno¹sabatlar asosan erkak va xotin o'rtasidagi muomalaga, uning qanchalik samimiyligi, iliqligiga bog'liq bo'ladi. Ayolga o'z xohish-irodasini mumkin qadar namoyon etish, unga ma'lum ma'noda mustaqil erishish imkoniyati yaratiladi. U ko'p holatlarda turmush o'rtog'iga suyukli, erka va zarur yor rolini o'yaydi. Golod er-xotinning bir-birlariga yaqin bo'lishlarining 4 xil jihatini farqlaydi: simpatiya (yoqtirish), samimiyat, minnatdorlik va erotik jihatdan bog'liqlik. Monogam bo'limgan oila toifasi chin ma'noda nikoh munosabatlariga tayanmaydi. Bundan oilaning uch xil ko'rinishi mavjud: Ajrimlar tufayli paydo bo'lgan noto'liq oila XX asrning oxirlarida ko'payib ketgan noto'liq oila turi. Golodning ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya'dagi oilalar ajrimi shu qadar ko'paydiki, har 100 ta nikohga 51 ta oila ajrimi to'g'ri keldi. Bunga sabablardan biri ota-onalik rollarining bajarilmasligi, otaning bola tarbiyasidan sovuqqonlik bilan chetlashishidir, chunki

¹ Valieva Z. Konstitutsiya alifbosi. 3-4 sinf.

ko'pgina otalar ajralishgandan so'ng ma'lum muddat o'tgach, farzandlari bilan umuman yuz ko'rmas bo'lib ketishadi. Afsuski, O'zbekistonda oila va nikoh nechog'li qadrlanmasin, oilaviy ajrimlar ham qayd etiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi yillarda yiliga o'rtacha 14,5 mingdan 15 mingacha oila ajrimlari qayd etiladi, ajrimlarning sudlar orqali rasmiylashtiriladigan turlari FXDyo orqali rasmiylashtiriladiganidan ko'proqdir. Ajrim bo'lgan oialalrning 70 foizi yosh oilalar bo'lib, ularda o'rtacha 2,5 ta bola chala etim bo'lib qoladi. Bu kabi noto'liq oilalarda o'ziga yarasha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo bo'ldaiki, shu bois ham davlatimizning oila siyosatining mazmuni noto'liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda masalaning moddiy tomonidan ham uning ma'naviy-ahloqiy tomonlari bizni ko'proq tashvishga soladi. Beva bo'lib qolish, yoki turmush o'rtog'ining vafoti munosabati bilan noto'liq bo'lgan oila ham ko'proq onaning farzandi bilan yolg'iz qolishidir. Bunday oilalardagi ma'naviy muhit ajrim tufayli paydo bo'lgan noto'liq oilanikidan farq qiladi. O'zbek onalari bunday holatlarda otasining ruhi hurmatidan farzandlarida yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashga intiladi. Bunday o'ziga xoslik qator tadqiqotlarda alohida qayd etilgan. Nikohdan tashqari oila 90-chi yillarda ko'paygan oila turi, unda asosan yolg'iz qolgan ayol-ona oilani tebratadi. Bunday oilalar o'sha davrda Rossiyada 20-21 foizni, Buyuk Britaniyada va Frantsiyada – 32-35 foizni tashkil etgan bo'lib, ko'proq yoshgina bo'la turib ona bo'lganlar (15-19 yoshlilar) yoki aksincha, reproduktiv yoshdan o'tib qolganlar – 40-44 yoshlilar tashkil etadi. Bu o'rinda ikkala holatda xotin-qizlarning nikohga kirmasdan tug'ish motivlari turlicha bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, oila – nikohga yoki tug`ishganlikga asoslangan kichik guruh. Uning a`zolari ro`zg`orining birligi o`zaro yordami va ma`naviy mas`uliyati bilan bir-biriga bog`²langan oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a`zolarining turmush sharoitini va bo`sh vaqtini samarali uyuştirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta`sirini o`zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o`rnatadi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf odatlarini o`zida sinovdan o`tkazadi. Yaxshilarini o`z bag`rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o`z farzandlarini tarbiyalab, umum insoniy qadryatlarni singdirish bilan ularga boshlang`ich ijtimoiy yo`nalish beradi. O`z farzandlarini katta oqimga – jamiyatga qo`shish bilan esa oila jamiyat yo`nalishi, iqtisodiyoti, ma`daniyati va ma`rifatini ham belgilashga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo`rg`on hisoblanib kelgan. Xususan, o'zbek

² Hasanboeva O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.

oilalarining serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. Bizning millatda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro`zg`or tutishi, farzandlarni odobli ma`naviy etuk bo`lib komil topishini keksalar, ota-onaning ro`li katta. O`zbek oilalari o`zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibati va boshqa qadryatlari bilan ajralib turadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ruvshenskiy L.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.
2. Mavlonova R. To`raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika.
3. Valieva Z. Konstitutsiya alifbosi. 3-4 sinf.
4. Hasanboeva O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.